

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ustav bolalar tashkiloti (2024).
2. Staut L. "Leadership Capital" (2019).
3. Nurkeldiyeva D.A. "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" (2022).
4. Qodirova F.R., Tashpulatova Sh.K. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlar" (2023).

**GENDER TENGLIGI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI
AHAMIYATI**

Erkinova Farangiz Tolibjon qizi

2008-yil 27-aprelda Samarqand viloyati

Pastdarg'om tumanida tug'ilgan.

*Hozirda TDYU huzuridagi Samarqand viloyat yuridik
litseyi 1-bosqich talabasi. O'zbekiston Volontyorlari
Assotsiatsiyasi a'zosi.*

Kalit so'zlar: gender tengligi, ta'lim imkoniyatlari, mehnat bozori, siyosiy ishtirok, jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorli.

Gender tengligi zamonaviy jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uning ta'minlanishi jamiyatning har bir sohasi, jumladan ta'lim, mehnat bozori va siyosatda muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada gender tengligining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning ta'lim, ish o'rnlari va siyosatdagi roli hamda kelajak uchun imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Gender tengligi va ta'lim. Ta'lim-gender tengligini ta'minlashdagi birinchi qadamdir. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda ayollar va qizlarning ta'lim olish huquqini ta'minlash nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Ta'lim olish imkoniyati ayollarga quyidagi imkoniyattlarni beradi:

- Bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;
- Mustaqil iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lish;
- O'z huquq va erkinliklarini himoya qilish;

Misol uchun, qizlarning ta'lim olish darajasi oshgan mamlakatlarda oilaviy daromad yuqorilab, bolalar o'limi ko'rsatkichi kamaygan.

Mehnat bozoridagi tenglik

Gender tengligi mehnat bozorida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni talab etadi. Bu o’z ichiga quyidagilarni oladi:

- Bir xil mehnat uchun bir xil haq to’lash;
- Rahbarlik lavozimlarida gender balansini ta’minalash;
- Dekret ta’til kabi genderga xos ehtiyojlarni qondirish;

McKinsey kompaniyasining tadqiqotlariga ko’ra, ayollar rahbarlik qiladigan tashkilotlar samaradorlikda yuqori natijalar ko’rsatadi. Bu shuni anglatadiki, ayollar va erkaklarning mehnat bozorida teng ishtirok etishi iqtisodiy o’sishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Siyosatdagi o’rni

Siyosatda gender tengligini ta’minalash davlat boshqaruving samaradorligini oshiradi. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko’ra, ayollar parlamentdagi ulushi oshgan mamlakatlarda ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag’ miqdori ortadi. O’zbekiston misolida ayollarning siyosiy ishtirokini qo’llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida ayollarning rahbarlik lavozimlariga saylanish darajasi oshmoqda.

Jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati

1. Ijtimoiy adolatni ta’minalaydi;
2. Iqtisodiy barqarorlikni oshiradi;
3. Innovatsiyalar va barqaror rivojlanishga turtki beradi;

Masalan, Skandinaviya davlarlari gender tengligini ta’minalash orqali dunyoning eng barqaror va taraqqiy etgan mamlakatlari qatoriga kirgan.

Xulosa va tavsiyalar. Gender tengligi-bu nafaqat inson huquqlarini ta’minalash, bakli jamiyat rivojlanishini jadallashtirishning asosiy omilidir. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham gender tengligini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan. 2021-yilda qabul qilingan yangi o’zgarishlar va qo’shimchalar orqali ayollarmimh huquqlari va erkinliklari yanada kafolatlangan. Konstitutsiya davlatning barcha fuqarolariga, jumladan, ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratishga majbur qiladi. Ayollarning mehnat huquqlarining himoya qilinishi, ularning oilaviy majburiyatları bilan birga professional faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratishi ta’kidlangan. Shu bois:

- Qiz va o’g’il bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish;
- Mehnat bozori va siyosatda gender tengligini qo’llab-quvvatlovchi dasturlarni ishlab chiqish;
- Gender stereotiplarini bartaraf etish maqsadida jamiyatni ongli ravishda tarbiyalash zarur